

**ANDIJON DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.Fil.32.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

ANDIJON DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI

XASANOVA AQIDA RAXIMJON QIZI

**BELGI BILDIRUVCHI SO‘ZLARNING TURLI USLUBDAGI
MATNLARDA QO‘LLANILISHI
(ingliz va o‘zbek tillari misolida)**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik
va tarjimashunoslik**

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Andijon – 2026

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
philological sciences**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
филологическим наукам**

Xasanova Aqida Raximjon qizi

Belgi bildiruvchi so'zlarning turli uslubdagi matnlarda qo'llanilishi (ingliz va o'zbek tillari misolida) 3

Khasanova Aqida Rakhimjon kizi

The use of attribute-expressing words in texts of different functional styles (on the example of the English and Uzbek languages)..... 25

Хасанова Акида Рахимжон кизи

Употребление слов, выражающих признак, в текстах различных функциональных стилей (на материале английского и узбекского языков) .. 49

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

List of published works

Список опубликованных работ 53

**ANDIJON DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.Fil.32.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

ANDIJON DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI

XASANOVA AQIDA RAXIMJON QIZI

**BELGI BILDIRUVCHI SO‘ZLARNING TURLI USLUBDAGI
MATNLARDA QO‘LLANILISHI
(ingliz va o‘zbek tillari misolida)**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik
va tarjimashunoslik**

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Andijon – 2026

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasida B2025.2.PhD/Fil6319 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Andijon davlat chet tillari institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume)) Andijon davlat chet tillari instituti veb-sahifasining (www.adchti.uz) va "Ziyonet" axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) manzillariga joylashtirildi.

Ilmiy rahbar:

Maxsudova Xolisxon Ummatovna
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Rasmiy opponentlar:

Satimova Dilafruzxon Numonjonovna
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Mirzaaxmedova Yulduzxon Anvarovna
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Qo'qon davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Andijon davlat chet tillari instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.Fil.32.02 raqamli Ilmiy kengashning "____" _____ 2026-yil soat ____ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 170100, Andijon shahar, Bobur shohko'chasi 5-uy. Tel: 0(374) 223 42 76; faks: 0(374) 223 42 76 e-mail: asifl_info@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Andijon davlat chet tillari institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____-raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 170100, Andijon shahar, Bobur shohko'chasi 5-uy. Tel: 0(374) 223 42 76).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "____" _____ kuni tarqatildi.
(2026-yil "____" _____ dagi ____ raqamli reyestr bayonnomasi).

D.A.Rustamov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

A.Dj.Atoboyev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

M.A.Abduvaliyev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligi jarayonida turli xalqlar o‘rtasidagi madaniy va tillararo aloqalarning tobora kengayib borayotgani tilshunoslik sohasida qiyosiy tadqiqotlarning ahamiyatini yanada oshirmoqda. Ayniqsa, belgini ifoda etuvchi so‘zlar – sifat va ravish hamda boshqa leksik-stilistik vositalarning turli uslubdagi matnlarda qo‘llanish xususiyatlarini o‘rganish, tilning ekspressiv va kommunikativ imkoniyatlarini chuqurroq anglashga xizmat qiladi. Belgi bildiruvchi so‘zlar tilda nafaqat predmet, hodisa yoki harakatga nisbatan belgilovchi xususiyatlarni anglatadi, balki matnning ifodalilik, ta’sirchanlik, uslubiy ohang kabi muhim belgilarini shakllantiradi. Mazkur jihatlarni chuqur tahlil qilish esa uslubshunoslik, leksikologiya, pragmalingvistika va matnshunoslikning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Dunyo tilshunosligida turli uslubdagi nutq – ilmiy, badiiy, publisistik, rasmiy-idora, so‘zlashuv nutqida ushbu so‘zlarning semantik yuki, maqsadga muvofiqligi, emotsional ta’sir darajasi turlicha namoyon bo‘lishi masalasiga qiziqish doim mavjud bo‘lgan. Shu ma’noda, belgi bildiruvchi so‘zlarning qiyosiy tahlili orqali tillar o‘rtasidagi umumiylik va farqlar aniqlash tarjimonlar, til o‘rgatuvchi mutaxassislar hamda madaniyatlararo kommunikatsiya sohalarida faoliyat yuritayotgan mutaxassislar uchun muhim ilmiy, amaliy xulosa va tavsiyalar taqdim etishi bilan dolzarblik kasb etadi. Axborot texnologiyalari jadal rivojlanayotgan hozirgi zamonda avtomatik matn tahlili, mashinali tarjima va kompyuter lingvistikasi sohalarida belgi bildiruvchi so‘zlarning uslubiy funksiyalarini hisobga olish talab etilmoqda. Bu esa tadqiqot mavzusining nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham dolzarbligini oshiradi.

Ona tilimizning ravnaqi davlat siyosati darajasiga ko‘tarilishi xalqimiz ma’naviy-ma’rifiy salohiyatining yanada yuksalishiga asos bo‘ldi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning: “Har birimiz davlat tiliga bo‘lgan e’tiborni mustaqillikka bo‘lgan e’tibor deb, davlat tiliga ehtirom va sadoqatni ona-Vatanga ehtirom va sadoqat deb bilishimiz, shunday qarashni hayotimiz qoidasiga aylantirishimiz zarur”¹ degan so‘zlari o‘zbek millatining nafaqat jamiyatdagi o‘z mavqeini belgilashga, balki eng rivojlangan xalqlar qatoridan munosib o‘rin egallashga bo‘lgan da’vatdir. Bu borada hal etilishi va o‘rganilishi lozim bo‘lgan muammolar anchagina. Shulardan biri alohida lingvistik xususiyatlarga ega bo‘lgan sifat va ravish so‘z turkumlari doirasidagi belgi bildiruvchi so‘zlarni stilistik yo‘nalishda tahlil etishdir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi PF-4794-son «Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to‘g‘risida»gi farmoni, 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha «Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini

¹ Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida // O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 20.10.2020 yildagi PF-6084-son. <https://lex.uz/uz/docs/-5058351> – Murojaat sanasi: 10.12.2025

2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu ilmiy tadqiqotimiz ma’lum darajada xizmat qiladi.

Dissertatsiyaning O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar taraqqiyoti ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalari I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarildi.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Nutqda atributiv va relyativ munosabatlarni shakllantiradigan element hisoblanuvchi belgi bildiruvchi so‘zlar o‘zining leksik-grammatik vazifasidan tashqari nutqiy vaziyatga qarab turlicha stilistik vazifalarni bajaradi va emotsional-ekspressiv ottenkalarni vujudga keltiradi.

O‘zbek tilshunosligida morfologik vositalarning stilistik xususiyatlarini ot, fe‘l, sifat, olmosh, ko‘makchi kabi so‘z turkumlari misolida tadqiq etishga bag‘ishlangan ishlar amalga oshirildi. R.Qo‘ng‘urov², M.Sodiqova³, Z.Pardayev⁴, A.Pardayev⁵, O.Yusupova⁶larning nomzodlik dissertatsiyalari, shuningdek, bu tadqiqotlar jarayonida yuzaga kelgan monografiyalar⁷ shular jumlasidandir.

Bu tadqiqotlar ko‘lamini boshqa so‘z turkumlari hisobiga kengaytirish masalasi diqqat markazda turibdi. Narsa-hodisalarning belgi-xususiyatlarini tadqiq etish borasida o‘zbek tilshunosligida muayyan ishlar amalga oshirilgan. S.Fuzailov, Z.Ma‘rufov, Z.Pardayev, E.Sheraliyev, T.Asadovning kitoblari⁸; Z.Pardayev, H.Tojimatov, N.Shirinova dissertatsiyalari bu mavzu doirasida e‘tiborga sazovor⁹. Mazkur ishlar sifat va ravishlar semantikasi hamda grammatik xususiyatlarini tahlil etishga bag‘ishlangan. Bu monografik tadqiqotlarda ravishlarga xos bo‘lgan stilistik jihatlarining ayrim qirralari haqidagina so‘z yuritilgan bo‘lib, ularning birontasi ham ushbu turkumga xos bo‘lgan elementlarning funksional-stilistik xususiyatlari tahlilini qamrab olgan emas.

² Kўnғуров Р. Ўзбек тилида отлардаги шакл ясовчи морфемаларининг семантик-стилистик хусусиятлари: филол. фан номз. диссер. – Боку, 1982. – 144 б.

³ Содикова М. Ҳозирги ўзбек адабий тилида феъл стилистикаси: филол. фан номз. диссер. – Тошкент, 1991. – 245 б.

⁴ Пардаев З. Ўзбек тилида сифатларнинг семантик-услубий хусусиятлари: филол. фан номз. диссер. – Самарқанд, 2004. – 132 б.

⁵ Пардаев А. Ҳозирги ўзбек тилида кўмакчиларнинг функционал-стилистик хусусиятлари: филол. фан номз. диссер. – Самарқанд, 2005. – 156 б.

⁶ Юсупова О. Ўзбек тилида олмошларнинг функционал-стилистик хусусиятлари: филол. фан номз. диссер. – Тошкент, 2011. – 22 б.

⁷ Кўнғуров Р. Ўзбек тили стилистикасидан очерклар. – Самарқанд, 1975.; Кўнғуров Р. Субъектив баҳо формаларининг семантик ва стилистик хусусиятлари. – Тошкент, 1980.; Содикова М. Феъл стилистикаси. – Тошкент, 1975.; Пардаев З. Ўзбек тилида сифатларнинг семантик-услубий хусусиятлари. – Самарқанд, 2007.; Пардаев А. Ўзбек тилида кўмакчилар стилистикаси. – Самарқанд, 2008.; Юсупова О. Ўзбек тилида олмошларнинг функционал-стилистик хусусиятлари. – Самарқанд, 2017.

⁸ Фузайлов С. Ҳозирги ўзбек тилида равишлар– Самарқанд, 1953.; Маъруфов З. Сўз состави: от ва сифат. – Самарқанд, 1956.; Шералиев Э. Ўзбек халқ шеваларида қўшма от ва қўшма сифатлар. – Тошкент, 2010.; Асадов Т. Сўз туркумлари тизимида равиш. Морография. – Тошкент, 2010.

⁹ Тожиматов Х. Сифат семемасининг реаллашувида контекст: филол. фан номз. диссер. – Тошкент, 2007.; Ширинова Н. Ўзбек тилида предметлик ва белги-хусусият маъноларини фарқлаш воситалари: филол. фан номз. диссер. – Тошкент, 2010.

Ingliz tilshunosligida sifat va ravishlarning funksional-stilistik xususiyatlarini o'rganish tilni nafaqat grammatik, balki matn va nutq vaziyatidagi amaliy qo'llanish nuqtai nazaridan tahlil qilishni anglatadi. Bu borada yetakchi olimlarning yondashuvlari quyidagicha farqlanadi: M. A. K. Halliday¹⁰: Tilning tizimli-funksional nazariyasi (Systemic Functional Linguistics) asoschisi bo'lib, u sifat va ravishlarni matnning g'oyaviy (ideational) va tasviriy (interpersonal) ma'nolarini yuzaga chiqaruvchi muhim leksik-grammatik vositalar sifatida o'rgangan. Geoffrey Leech¹¹: O'zining "A Linguistic Guide to English Poetry" asarida sifat va ravishlarning badiiy matndagi estetik vazifasi, ularning emotsional va ekspressiv xususiyatlarini tahlil qilgan. Douglas Biber¹²: K corpus (korpus) lingvistikasi asoschilaridan biri bo'lib, u yirik lingvistik bazalarga tayanib, sifat va ravishlarning ilmiy, publitsistik va so'zlashuv uslublaridagi miqdoriy va chastotaviy qo'llanish qonuniyatlarini statistik ma'lumotlar orqali aniqlab bergan. Mick Short¹³: Stilistika va matn tahlili (Stylistics) yo'nalishida ijod qilib, muallifning badiiy uslubda qahramon va voqelikni tasvirlashda sifat va ravishlardan qanday maqsadlarda foydalanishini batafsil yoritgan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Ushbu tadqiqot Andijon davlat chet tillari instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejalariga muvofiq "Til va madaniyat integratsiyasi xorijiy tillar ta'limining barqaror rivojlanish modeli: lingvistik, filologik, lingvodidaktik va raqamli yondashuvlar" mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi o'zbek va ingliz tillaridagi belgi bildiruvchi so'zlarning turli uslubdagi matnlarda qo'llanilishini leksik-semantik, uslubiy va pragmatik jihatdan qiyosiy tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

belgi bildiruvchi so'zlarning o'zbek tilida o'rganilishiga chuqur tahlil qilish, uni o'rganishga bag'ishlangan asosiy kuzatishlarga munosabat bildirish;

sifat va ravishlarning variantdorligini uslubiy aspektda yoritish; kommunikativ vaziyatga bog'liq holda sifat va ravishlar sinonimiyasini tahlil etish hamda ularning faollik darajasini belgilash;

belgi bildiruvchi so'zlarning turli uslubdagi matnlardagi vazifalarini o'rganish; belgi bildiruvchi so'zlarning ekspressiv va emotsional yukini tahlil qilish;

sifat va ravishlarning semantik, emotsional-ekspressiv ottenkalari shakllanishining uslubiy shart-sharoitlarini aniqlash; belgi bildiruvchi so'zlardagi emotsional-ekspressiv bo'yoqlarni aniqlash; belgi bildiruvchi so'zlar orqali matnda ifodalanadigan ma'no va muallif munosabatini tahlil qilish;

belgi bildiruvchi so'zlarning o'zbek tili funksional-uslubiy tizimidagi o'rnini belgilash uchun uni ingliz tilidagi muqobiliga qiyoslash, bunda so'zlashuv va yozma nutqdagi funksional chegaralanishlar va uslubiy xoslanishlarning ekstralingvistik jihatlarini ochib berish, o'zbek va ingliz tillaridagi umumiy va farqli xususiyatlarni aniqlash.

¹⁰ Halliday M.A.K., Matthiessen C. An Introduction to Functional Grammar. London: Arnold, 2004.

¹¹ Leech G.N. A Linguistic Guide to English Poetry. London: Routledge, 1969.

¹² Biber D. Variation Across Speech and Writing. Cambridge: Cambridge University Press, 1988.

¹³ Short M.H. Exploring the Language of Poems, Plays and Prose. London: Longman, 1996.

Tadqiqotning obykti sifatida o‘zbek va ingliz tilida belgi bildiruvchi so‘zlar tanlangan (asosan sifat va ravish misollari bilan).

Tadqiqotning predmetini o‘zbek va ingliz tillarida belgi bildiruvchi so‘zlarning uslubiy va semantik xususiyatlari, matndagi funksiyalari hamda ularning qiyosiy tahlili orqali namoyon bo‘ladigan ekspressiv va pragmatik imkoniyatlari tahlili tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda tavsifiy, lingvostatistik, komponent tahlil metodlaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

predmet va harakat belgisini bildiruvchi so‘zlarning funksional-stilistik xususiyatlari atroflicha tadqiq etilgan; jumladan, ularning turli nutq uslublaridagi qo‘llanish qonuniyatlari ilmiy jihatdan yoritilgan;

sifat va ravishlarning variantdorligi va sinonimik munosabatlari, ularning kommunikativ asoslari hamda nutqiy jarayonda o‘zaro almashinuv imkoniyatlari tadqiq qilingan;

belgi bildiruvchi so‘zlarning semantik ma’no taraqqiyoti, emotsional-ekspressiv xususiyatlarining shakllanish qonuniyatlari hamda ularning yuzaga kelishiga ta’sir etuvchi lingvistik va ekstralingvistik omillar ilmiy jihatdan tahlil qilingan;

belgi bildiruvchi so‘zlar orqali ifoda etiladigan emotsional va ekspressiv yuk, muallif munosabati va ta’sir kuchini belgilovchi leksik va uslubiy vositalar tizimlashtirilgan; ikki tildagi belgi bildiruvchi so‘zlarning uslublararo transformatsiyasi, semantik o‘zgarishi va funksiyasiga oid xulosalar ilgari surilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari:

uslubiy tavsifni aniqlash va tahlil qilish imkonini taqdim etish uchun turli uslubdagi matnlarda (ilmiy, publisistik, badiiy) sifat va ravishlarning qo‘llanilishining xususiyatlari ochib berilgan. Bu natija matnlarni uslubiy jihatdan tahlil qilishda amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi.

tarjimadagi uslubiy moslikni ta’minlashga tavsiya ishlab chiqilgan: o‘zbek va ingliz tillaridagi belgi bildiruvchi so‘zlarning semantik va uslubiy farqlari asosida tarjima paytida uslubiy moslikni ta’minlash vositalari aniqlangan. Bu tadqiqot tarjimonlarga har ikki tilda uslubga mos tarjimani amalga oshirishda amaliy yo‘l-yo‘riq beradi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy-uslubiy va ilmiy-amaliy konferensiyalarda qilingan ma’ruzalar, ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar, xulosalar, taklif hamda tavsiyalarning amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati filologik ta’limda uslubshunoslik, qiyosiy tilshunoslik va tarjima fanlariga yangi nazariy-amaliy ma’lumotlar berishi bilan izohlanadi. Matn tahlili, avtomatik matn qayta ishlash (NLP), mashinali tarjima va ta’limda tillar o‘rtasidagi uslubiy farqlarni inobatga olishda qo‘llanilishi mumkin.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki, tadqiqot natijalari oliy ta’lim muassasalaridagi “Stilistika”, “Qiyosiy tilshunoslik”, “Tarjima nazariyasi” fanlarini o‘qitishda darsliklar va amaliy mashg‘ulotlar uchun namunaviy material sifatida

foydalanilishi mumkin. Tadqiqotdan olingan ma'lumotlar asosida o'zbek va ingliz tillarining turli uslublarida qo'llanilgan sifat va ravishlarni qamrab olgan elektron korpuslarni yaratish imkoni paydo bo'ladi. Bu kelgusida avtomatik tarjima, matnni uslubiy tahlil qilish, NLP (Natural Language Processing) loyihalarida qo'llanilishi mumkin.

Tadqiqot natijalarning joriy qilinishi. Olingan ilmiy natijalar asosida quyidagilar amalga oshirildi:

belgi bildiruvchi so'zlar orqali ifoda etiladigan emotsional va ekspressiv yuk, muallif munosabati va ta'sir kuchini belgilovchi leksik va uslubiy vositalar tizimlashtirilgan; ikki tildagi belgi bildiruvchi so'zlarning uslublararo transformatsiyasi, semantik o'zgarishi va funksiyasiga oid xulosalar, muallif munosabati hamda ta'sir kuchini belgilovchi vositalar tizimlashtirilishi, ikki tildagi belgi bildiruvchi so'zlarning uslublararo transformatsiyasi, semantik o'zgarishi va funksiyasiga oid xulosalar kabi masalalar bo'yicha ilmiy natijalardan O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston-24" ijodiy birlashmasi "O'zbekiston" teleradiokanali tomonidan tayyorlangan "Ta'lim va taraqqiyot", "Millat va ma'naviyat", "Adabiy jarayon", "Jahon adabiyoti" nomli eshittirishlarida foydalanilgan (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining 2025-yil 24-iyundagi 05-09-1009-son ma'lumotnomasi). Natijada radiotinglovchilar belgi bildiruvchi so'zlarning semantik ma'no taraqqiyoti, emotsional-ekspressiv ottenkalari yuzaga kelishining uslubiy shart-sharoitlari hamda ularni ro'yobga chiqaruvchi lingvistik va ekstralingvistik omillar tahlilini chuqurroq anglab yetdilar. Eshittirishlarning ilmiy saviyasi ortdi hamda turli uslublardagi matnlarda (ilmiy, publisistik, badiiy) sifat va ravishlarning qo'llanilish xususiyatlari ochib berildi.

belgi bildiruvchi so'zlarning funksional-stilistik xususiyatlari, sifat va ravishlarning variantdorligi, sinonimiyasi, kommunikativ asoslari hamda semantik ma'no taraqqiyoti masalalari bo'yicha ilmiy xulosalardan Andijon davlat universitetida bajarilgan Davlat fundamental-tadqiqot dasturlari doirasidagi "OT-F1-18. Ommaviy lisoniy madaniyatni shakllantirish metodlari va metodologiyasini ishlab chiqish" nomli loyihada foydalanilgan (Andijon davlat universitetining 2025-yil 24-oktyabrdagi 04-4488-son ma'lumotnomasi). Natijada ommaviy lisoniy madaniyatni shakllantirishga oid nazariy va amaliy qarashlar boyitildi.

predmet va harakat belgisini bildiruvchi so'zlarning funksional-stilistik xususiyatlari, sifat va ravishlarning variantdorligi, sinonimiyasi, kommunikativ-nutqiy holatlardagi almashinuvi hamda emotsional-ekspressiv ottenkalari yuzaga kelishining uslubiy shart-sharoitlari bo'yicha ilmiy xulosalardan Davlat innovatsion-tadqiqot dasturlari doirasidagi № IL-402104213 raqamli "O'zbek tilida elektron lingvistik ensiklopedik lug'at ishlab chiqish" loyihasida foydalanilgan (Andijon davlat universitetining 24-oktyabrdagi 04-4487-son ma'lumotnomasi). Natijada diskursiv qo'llanishda o'ziga xoslik kasb etuvchi ayrim til birliklarining tavsifi yanada yorqinlashdi.

belgi bildiruvchi so'zlarning semantik ma'no taraqqiyoti, emotsional-ekspressiv xususiyatlarining shakllanish qonuniyatlari hamda ularning yuzaga kelishiga ta'sir etuvchi lingvistik va ekstralingvistik omillar, belgi bildiruvchi so'zlarning o'zbek tilida o'rganilishi, ularning stilistik aspektlari, sinonimiyasi, kommunikativ vaziyatdagi faollik darajasi hamda terminologik aniqliklar kiritishga

oid ilmiy izlanishlardan universitet tomonidan 2022–2024-yillarda bajarilgan IL-402104209-raqamli “Axborot qidiruv tizimlari (Google, Yandex, Google translate) uchun avtomatik ishlov berish vositasi – o‘zbek tilining morfoleksikoni va morfologik analizatori dasturiy vositasini yaratish” nomli amaliy loyihada foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2026-yil 29-yanvardagi 04/63-6376-son ma’lumotnomasi). Natijada loyiha doirasida dasturiy vosita yaratishga oid ilmiy-metodik bazasi boyitildi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya ishi natijalari 12 ta jumladan, 6 ta xalqaro va 6 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma’ruza ko‘rinishida bayon etilgan va aprobatsiyadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiyaning asosiy mazmuni yuzasidan 12 ta ilmiy maqola va tezislari chop etilgan. Jumladan, O‘zbekiston Oliy attestatsiyasi komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta, xorijiy jurnallarda 6 ta ilmiy maqola chop etilgan hamda elektron hisoblash mashinalari uchun dastur yaratilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, 3 bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan tashkil topgan bo‘lib, jami 158 sahifadan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning “**Kirish**” qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslanib, tadqiqotning maqsad-vazifalari, predmeti va obyekti aniqlangan. Tadqiqotning O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilib, uning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan. Olingan natijalarning ishonchligi asoslanib, ishning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, aprobatsiyasi ko‘rsatilgan.

Tadqiqotning **I bobi “O‘zbek va ingliz tilida belgi bildiruvchi so‘zlarning lisoniy qiymati va tadqiqi”** deb nomlangan.

1.1-faslda *o‘zbek tilida ravishlarning o‘rganilishi* tadqiq etilgan. O‘zbek tili tizimida ravishlar alohida grammatik mavqega ega bo‘lgan mustaqil so‘z turkumidir. Ularning o‘rganilish tarixi o‘zbek tilshunosligi taraqqiyotining barcha bosqichlarini qamrab oladi. So‘z turkumlari masalasi S.M.Mutalibov¹⁴, A.N.Kononov¹⁵, A.M.Shcherbak¹⁶, E.Fozilov¹⁷, G‘.Abdurahmonov, Sh.Shukurov¹⁸, H.G‘.Ne‘matov¹⁹, J.Hamdamiyov²⁰ kabi olimlar asarlarida muntazam yoritilib kelgan.

¹⁴ Муталибов С.М. Морфология ва лексика тарихидан қисқача очерк. ЎзФА нашриёти. – Тошкент, 1959. – 240 б.

¹⁵ Кононов А. Н. Грамматика современного узбекского литературного языка / Ответственный редактор И. А. Орбели. М.; Л.: Издательство АН СССР, 1960. – 447 с.

¹⁶ Щербак А.М. Грамматика староузбекского языка. – М.-Л.: Изд-во АН СССР, 1962. – 272 с.

¹⁷ Фозилов Э. Ўзбек тилининг тарихий морфологияси. – Т., 1965. – 144 б.

¹⁸ Абдурахмонов Ф., Шукуров Ш. Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1973. – 318 б.

¹⁹ Нигматов Х.Г. Функциональная морфология тюркоязычных памятников. – Т., 1989. – 190 с.

²⁰ Хамдамиёв Ж. Ўзбек тили тарихи. II қисм. Тарихий морфология. Биринчи бўлим. – Самарқанд: СамДУ, 2003. – 180 б.

Shunday muhitda ravishlar ham mustaqil unsurlar sifatida sinxron (hozirgi holati) va diaxron (tarixiy rivoji) yo‘nalishlarida izchil tadqiq etildi.

Hozirgi o‘zbek adabiy tilida ravishlarni keng ko‘lamda o‘rganish S. Fuzailov nomi bilan chambarchas bog‘liq. U 1950-yillardan boshlab ravishlarning lingvistik tabiatini, ayniqsa ravish va sifat tutashuvini tizimli tadqiq etdi. S. Fuzailovga ko‘ra, har bir so‘z turkumi o‘ziga xos leksik-semantik va grammatik belgilarga ega; ravish bilan sifatning morfologik jihatdan mushtarak tomonlari bo‘lsa-da, sintaktik vazifa va ma‘noviy markaz farqli: sifat predmetning, ravish esa harakat yoki holatning belgisini bildiradi²¹. U ravishning “belgining belgisi”ni ko‘rsatish funksiyasini (eng, juda, g‘oyat, ancha, sal va b.) alohida e‘tirof etadi, matnda odatdagi va inversiya holatlaridagi o‘rnini ham tahlil qiladi. Bu borada J.Eltazarovning ishlari diqqatga sazovor²².

T. Asadovning “So‘z turkumlari tizimida ravish” nomli tadqiqoti ravishlarning o‘zgarmasligi, derivatsion tizimi va semantik-funksional imkoniyatlarini kengaytirilgan nazariy asosda ko‘rsatadi²³. Muallif turkiy tillar tabiatiga mos kelmaydigan, G‘arbiy Yevropa tillari uchun xos bo‘lgan “birikuvga qarab turkum belgilash” mezonini tanqid qiladi; natijada bir xil shakldagi birlikni ot,sifat va ravishga bo‘lib yuborish formal yondashuv ekanini asoslaydi. T. Asadov ravishlarni mustaqil so‘z guruhi sifatida ajratishda uch tayanch mezonni taklif qiladi: (1) ma‘no qobiliyatining mustaqilligi, (2) o‘zgarmaslik, (3) yasaliş tizimi. U pleonastik va okkazional qo‘llanishlar mavjud bo‘lsa ham, ravishlar gapda modal munosabatni emas, balki ma‘lum tushunchalarning ifodasini ta‘minlaydi va tobe (mustaqil) o‘rin egallashi bilan yordamchi birliklardan farqlanishini ko‘rsatadi.

Ravish yasaliş tizimi atrofida bahslar ham mavjud. A. Hojiyev ayrim mahsuldor hisoblangan affikslarning (-cha, -larcha, -chasiga, -lab, -iga/-siga) haqiqiy yasovchilik maqomiga shubha bildiradi: ularning ma‘nosi ko‘pincha grammatik talqinga yaqinlashadi, tarkibida bo‘linmas leksemalarga aylangan hollari ko‘p, degan fikrni ilgari suradi²⁴.

Ravishlarning dialektal, tarixiy va uslubiy qirralari borasida qator izlanishlar olib borilgan. Shu nuqtai nazardan, ravish turkumi atrofidagi zamonaviy manzara quyidagicha umumlashadi: (1) ravishlar o‘zbek tilida mustaqil grammatik kategoriya sifatida e‘tirof etiladi; (2) ularning morfologik belgilar tizimi mavjud bo‘lib, mahsuldor (-cha, -larcha, -lab, -day/-dek, -chasiga) va nisbatan kam mahsuldor (-ona, -an/-n/-in) vositalar farqlanadi; (3) takror va juftlashish orqali yasaliş faol; (4) adverbializatsiya bilan barqaror ko‘chishni farqlash zarur; (5) sinonimiya, uslubiy rang, kuchaytiruv/kuchsizlantiruv va darajalanuv – ravish semantikasining muhim qatlamlari; (6) kirishma unsurlar (arab-fors, rus tili) tarixiy jarayonlarda o‘zbek tiliga moslashgan.

Demak, ravishlar o‘zbek tili so‘z turkumlari tizimida mohiyatan mustaqil, ammo keng ko‘lamli turkumlararo munosabatlarga ochiq bo‘lgan birliklardir.

²¹ Фузайлов С. Ўзбек тили грамматикаси. Том I. Морфология. – Т., 1975. – 609 б.

²² Элтазаров Ж.Д. Сўз туркумлари ҳақидаги лингвистик назариялар. – Самарқанд: СамДУ нашри, 1996. – 127 б.

²³ Асадов Т.Х. Сўз туркумлари тизимида равиш: Филол. фан. номз. дис. автореф. – Тошкент, 2009.; Асадов Т.Х. Сўз туркумлари тизимида равиш. – Тошкент: Мухаррир, 2010.

²⁴ Ҳожиёв А. Ўзбек тилида равиш ясаиши тизими масаласига доир / Ўзбек тили ва адабиёти. – 2001. – № 2. – Б. 42.

Ularning derivatsion vositalari, semantik-funksional imkoniyatlari, tarixiy va dialektal qatlamlari bo'yicha to'plangan ilmiy mulohazalar (J.Eltazarov, S.Fuzailov, T.Asadov, A.Hojiyev va boshqalar) mazkur turkumning nazariy poydevorini mustahkamladi. Ravishlarning nutqiy-uslubiy aspektlarini chuqurroq o'rganish, ularni zamonaviy korpus va hisoblash usullari yordamida tahlil qilish, hamda adverbializatsiya jarayonining chegaralarini aniqroq chizish hozirgi bosqichning dolzarb vazifalaridan bo'lib qolmoqda.

1.2-faslda *o'zbek tilida ravishlarning o'zgarmaslik xususiyati haqida* fikr yuritilgan. Tilda mavjud bo'lgan so'zlarni turkumlarga ajratish mezonlari turlicha bo'lib, ayrim tamoyillar barcha so'z turkumlari uchun umumiy, ba'zilar esa faqat ma'lum bir turkum uchun xos hisoblanadi. Ravishni alohida turkum sifatida ajratishga asos bo'ladigan eng muhim belgi uning o'zgarmasligi, turlanmasligi va tuslanmasligidir. Asosan, bu ularning morfologik shakl jihatidan turg'unligini bildiradi. Masalan, *tezda, birdan, tavakkaliga* kabi shakllar tarkibiy qismlarga ajratilsa, ravishlik xususiyatini yo'qotadi. Demak, *bir+dan* qo'shilishi natijasida paydo bo'lgan shakl otlashgan birlikka yaqinlashadi, ammo *birdan* mustaqil ravish sifatida turg'unlashgan. Shu kabi *bir* komponenti asosida yuzaga kelgan ko'plab shakllar – *birma-bir, bir oz, bir qancha, bir vaqt, bir gal, bir nav, bir umr, bir yoqlama, birin-ketin, biryo'la* va boshqalar – semantik jihatdan alohida mustaqil ravishlardir. Ularni faqat tarkibiy qism sifatida ko'rib bo'lmaydi, chunki nutqda ular harakatning belgisini ifodalashda turg'un ma'noga ega.

Ravishlarning yasalishi ham ularning o'zgarmaslik tamoyilini qay darajada nisbiy ekanini ko'rsatadi. Masalan, *birma-bir* va *birma-birlab* shakllari semantik jihatdan bir xil emas: *-lab* qo'shimchasi qo'shilganda "har birini alohida ta'kidlab bajarish" ma'nosi kuchayadi. Shuningdek, *ko'p* va *ko'plab, yaxshi* va *yaxshilab* birliklarining o'rnini grammatik jihatdan almashtirish mumkin bo'lsa-da, stilistik qiymati turlicha bo'ladi. *-lab* affiksi ko'pincha so'zlovchining subyektiv munosabatini bildiradi, nutqqa ta'kid yoki hissiy rang kiritadi.

Demak, ravish turkumining bosh grammatik belgisi sifatida ko'riladigan o'zgarmaslik tamoyili muhim, ammo uni mutlaq hodisa deb bo'lmaydi. Ravishlarning nutqda turli shakllarda qo'llanishi, stilistik ranglari, semantik nozikliklari bu tamoyilning nisbiyligini ko'rsatadi. Ravishlar morfologik o'zgarmasligi bilan alohida turkum sifatida ajralib tursa-da, ular nutqda stilistik xilma-xillik va semantik funksionallik orqali tilning eng dinamik qatlamlaridan birini tashkil etadi. Shu bois o'zgarmaslik ravishlarning asosiy differensial belgisi sifatida qabul qilinishi bilan birga, uning nutqiy jilolari va tarixiy rivojlanish jarayonlari ham inobatga olinishi lozim.

1.3-faslda *o'zbek tilida sifat va ravish mushtarakligi* tahlil qilingan. Sifat va ravish o'zbek tilshunosligida belgi ifodalovchi birliklar sifatida mushtarak semantik maydonga ega bo'lsa-da, ular turkum maqomida differensial omillar bilan ajraladi. Asosiy tafovut shundaki, sifat predmet (narsa-hodisa)ning statik belgisini, ravish esa harakat-holatning dinamik belgisini bildiradi. Shunga qaramay, ikki turkum o'rtasidagi yaqinlik nafaqat leksik-grammatik, balki uslubiy qatlamda ham namoyon bo'ladi: baholash (ijobiy/salbiy munosabat), darajalanish va ta'kid vazifalarini har ikkisi ham amalga oshira oladi. Bu holat N.Mahmudov va T.Xo'jayev tomonidan ta'kidlangan "belgi"ning turli tipdagi obyektga (predmet vs. harakat) tatbiqi orqali

tushuntiriladi; natijada yaqinlik – semantik, farqlanish esa funksional-morfologik asosda yuz beradi²⁵.

Subyektiv baho va ekspressivlikni ifodalashda –gina ko‘rsatkichi alohida ahamiyatga ega. U turli so‘z turkumlari bilan birikib (sifat: *soddagina*; ravish: *unsizgina*, *sekingina*; miqdor: *ozginagina* va h.k.), kichraytirish, erkalash, chegaralash hamda ta‘kid ma‘nolarini hosil qiladi. Ravish tarkibida –gina ko‘pincha muallifning yoki nutq subyektining munosabatini nozik tarzda aktualizatsiyalaydi (*endigina*, *kechagina*, *unsizgina*), ayrim kontekstlarda esa kinoya va bahs ohangini kuchaytiradi. Bu xususiyat ravishlarning pragmatik-funksional imkoniyatlari sifat va ravishning uslubiy mushtarakligini, lekin ularning vazifa maydonining turlicha ekanini ko‘rsatadi.

Darajalanish ifodasida turkumlararo usullar ham, turkumga xos vositalar ham uchraydi. Sifatlar uchun fonetik-konstruksion kuchaytirgichlar (*qip-qizil*, *ko‘m-ko‘k*, *kap-katta*) xos bo‘lsa, ravishlarda ko‘pincha daraja ko‘rsatkichlari (*juda*, *nihoyatda*, *g‘oyatda*) va takror-usullar (*tez-tez*, *juda-juda*; *bab-baravar*, *to‘ppa-to‘g‘ri*) faol. Ayrim yondashuvlarda *eng*, *juda* kabi birliklar mustaqil leksik mazmunga ega bo‘lmagani sabab kuchaytiruv yuklamalari sifatida izohlanadi; bu hol ravishning leksik-morfologik mustaqilligini belgilashda ehtiyotkorlikni talab etadi.

Adverbializatsiya – sifat shaklining ravish vazifasida qo‘llanishi – ikki turkum chegarasidagi eng tipik o‘tish hodisasidir (*chiroyli yozadi*, *so‘zsiz rozi bo‘ldi*, *uzluksiz oqadi*). Bu jarayon bir yo‘nalishda nisbatan barqaror kechadi (sifat → ravish), teskari yo‘nalish esa deyarli kuzatilmaydi. Morfologik mezonlar ham farqlashda muhim: ravish, odatda, o‘zgarimas; sifat esa kelishik/egalikka kirish imkoniyatiga ega. Shu bois o‘zbekcha kabilar ko‘pincha sifat sifatida tahlil qilinadi (o‘zgarishli paradigmaga kirish qobiliyati), o‘zbekona esa ko‘proq uslubiy bo‘yoqli variantdir. –cha qo‘shimchasining ot, sifat va ravish bilan birday birikishi (masalan, *do‘stcha*, *yangicha*, *yashirincha*) tasnifda noaniqliklar keltirib chiqarishi mumkin; bunday hollarda birikuvchanlik, morfologik o‘zgaruvchanlik va gapdagi funksional roli hal qiluvchi mezon bo‘lib xizmat qiladi.

Zero, sifat va ravishning umumiy “belgi” semantikasi ularni yaqinlashtiradi, biroq belgi nisbati (predmet vs. harakat), morfologik rejim (o‘zgarimaslik vs. o‘zgaruvchanlik) hamda sintaktik-funksional vazifa ularni turkumiy jihatdan qat‘iy farqlaydi. Adabiy nutqda ravishlar pragmatik-ekspressiv qatlamni shakllantirishda, sifatlar esa tasviriy epitetik maydonni kengaytirishda yetakchi rol o‘ynaydi; –gina, takror va kuchaytiruv vositalari esa mazkur ikki turkumning uslubiy mushtarakligini real nutqda silliq o‘tishlar orqali namoyon etadi.

1.4-faslda *ingliz tilida sifat va ravishning morfologik va uslubiy xususiyatlari* tahlil qilingan.

Ingliz tilida sifatlar bir qator morfologik xususiyatlarga ega bo‘lib, ular nutqda muhim grammatik va semantik vazifani bajaradi. Sifatlar darajada o‘zgarish xususiyatiga ega: oddiy (positive), qiyosiy (comparative) va orttirma (superlative) shakllarda qo‘llaniladi. Bir va ba‘zi ikki bo‘g‘inli sifatlarda “-er”, “-est”

²⁵ Махмудов Н. Ўзбек тилшунослигининг таракқиёти / Ўзбек тили ва адабиёти, 2001, №4. – Б.5-11; Хўжаев Т. Яхши типидagi сўзларнинг адвербиализация процессига доир // Ўзбек тили ва адабиёти масалалари, 1961, 3-сон. – Б.42.

qo‘shimchalari orqali darajalanish yuz bersa (*small – smaller – smallest*), ko‘p bo‘g‘inli sifatlarda “more” va “most” yordamida ifodalanadi (*more beautiful – most beautiful*).

Sifatlarning uslubiy xususiyatlari ham e‘tiborga molik. Ular tasviriy vazifa bajarib, otlarga aniqlik bag‘ishlaydi va nutqning obrazlilikini ta‘minlaydi. Sifatlar yordamida his-tuyg‘u, emotsional munosabat ifodalanadi. Masalan, *serene, melancholic, vibrant* kabi sifatlar matnning umumiy ohangi va ruhiyatini belgilaydi. Ingliz tilida sifatlarning ketma-ketligi qat‘iy tartibga bo‘ysunadi: subyektiv fikr, so‘ng o‘lcham, yosh, shakl, rang, kelib chiqish, material va maqsad belgilanadi (*a lovely small old rectangular brown French wooden writing desk*).

Ingliz tilida ravish so‘z turkumi ham o‘ziga xos morfologik va uslubiy xususiyatlarga ega. Ravishning asosiy turlari tarz ravishlari (*clearly, quickly*), o‘rin ravishlari (*here, outside*), payt ravishlari (*tomorrow, late*), daraja ravishlari (*very, almost*) hamda chastota ravishlaridir (*always, rarely*). Ravishlarning yasalishi ko‘pincha sifatga **-ly** qo‘shimchasini qo‘shish orqali amalga oshadi (*quick → quickly, happy → happily*). Biroq ayrim ravishlar shaklan sifatdan farq qilmaydi va o‘zgarmas holda keladi (*fast, hard, late, early*). Ravishlarning gapdagi joylashuvi ham turlicha: ular fe‘ldan keyin (*She sings beautifully*), gap boshida (*Usually, I get up at 7*) yoki gap oxirida (*He completed the task perfectly*) kelishi mumkin.

1-jadval

Ingliz tilida ravishlarning uslubiy xususiyatlari

Funksiya	Ta‘rif	Misollar
Emotsional va baho berish funksiyasi	Ba‘zi ravishlar gapga baho va hissiyot qo‘shadi; so‘zlovchi munosabatini, ishonch darajasi va kayfiyatini ifoda etadi; matnga shaxsiy munosabat, subyektiv baho, emotsional ohang beradi.	<i>Unfortunately, we lost the game. Surprisingly, she agreed at once. Frankly, I don’t care.</i>
Uslubiy (formal/informal)	Ingliz tilida ayrim ravishlar rasmiy (formal), ba‘zilari esa norasmiy (informal) uslubda ishlatiladi. Bu ravishlar gapning uslubiy janrini belgilaydi: ilmiy matn, badiiy asar, yoki og‘zaki nutq.	<i>Formal: accordingly, consequently, moreover, nevertheless. Informal: really, so, pretty much, totally</i>
Urg‘u yaratish	Ravishlar urg‘uni alohida so‘z yoki fikrga qaratishda qo‘llanadi; aytilayotgan fikrning qay darajada muhim ekanini ko‘rsatadi.	<i>Only she knew the truth. Even he couldn’t solve the problem. Just do it.</i>
Qofiya yaratish	Adabiy matnlarda ravishlar qaytarish va ritm yaratish uchun ham foydalaniladi; bu badiiy ta‘simi kuchaytiradi.	<i>He walked slowly, silently, steadily. She laughed softly, sadly, strangely.</i>
Kontrast va ironiya ifodalash	Ravishlar ironiya yoki kutilmagan holatni ifodalashda ishlatiladi; matnning ton va kayfiyatini belgilaydi.	<i>Curiously, no one noticed his absence. Oddly enough, she smiled during the funeral.</i>

Demak, ingliz tilida sifat va ravish so‘z turkumlari morfologik, semantik va uslubiy xususiyatlari bilan nutqning aniqligi, ifodaliligi va badiiy boyligini ta‘minlovchi muhim birliklar hisoblanadi. Sifatlar predmetning belgisini aniqlab, tasviriylik yaratadi, ravishlar esa harakat va holatning turli qirralarini ifodalab, gapning emotsional va uslubiy yukini belgilaydi.

Tadqiqotning **II bobi** “O‘zbek va ingliz tillari so‘zlashuv nutqi, rasmiy va ilmiy matnlarida belgi bildiruvchi so‘zlar qo‘llanishining qiyosiy tahlili” deb nomlangan.

2.1-faslda *sifat va ravishlarda hissiy-ekspressiv bo‘yoqlar namoyon bo‘lishining uslubiy shart-sharoitlari* tahlil qilingan.

Til birliklari nutq jarayonida, avvalo, axborot tashish va, shuningdek, tinglovchi/o'quvchiga ma'lum darajada ta'sir o'tkazish vazifalarini bajaradi; V.V.Vinogradov ajratgan aloqa–xabar–ta'sir triadasi mazkur ikki yo'nalishni nazariy jihatdan asoslaydi. Shu nuqtayi nazardan sifat va ravishning funksional-uslubiy tabiati ularning kommunikativ qiymatini belgilaydi: sifat predmetning belgisini aniqlab, tasviriy qatlamni quradi; ravish esa harakat/holatning parametrlarini (tarz, payt, o'rin, daraja, maqsad va b.) modulyatsiya qilib, xabarni nozik pragmatik jilolar bilan boyitadi²⁶.

Sifat badiiy uslubda epitet va metaforik kengayish orqali obrazlilikni kuchaytirsa, publitsistik uslubda baholovchi, qiymatlashtiruvchi birlik sifatida auditoriya qarashlariga ta'sir ko'rsatadi; so'zlashuvda intensivatsiya (masalan, *qop-qora, juda yaxshi*) tez-tez uchraydi. Ilmiy uslubda esa sifat terminologik aniqlikni ta'minlaydi: *atom massasi, differensial tenglama, elektr zaryadi, xlorid kislotasi* kabi birikmalarda sifat komponenti klassifikatsion/parametrik belgi vazifasini bajaradi, subyektiv baho yukidan xoli bo'ladi va semantik diapazoni qat'iy chegaralangan bo'ladi. Bunda darajalanish ham ko'proq analitik konstruksiyalar orqali (masalan, *eng muhim omil, ko'proq samarali yechim*) ifodalanadi.

Ravishning stilistik salohiyati uch pog'onada ko'rinadi. Birinchisi – tasviriylik: “Ahmad keldi” minimal predikativ xabar bo'lsa, “*kecha keldi / uzoqdan keldi*” shakllari payt va o'rin parametrlari hisobiga voqelikning kadrini kengaytiradi. Ikkinchisi – subyektiv baho: “*to'satdan keldi, atay keldi, juda ko'p keldi*” konstruksiyalarida ravish so'zlovchi munosabatini aktuallashtirib, xabarning modal qatlamini kuchaytiradi. Uchinchisi – diqqat markazini boshqarish: matnda fokusni zarur pozitsiyaga jamlash uchun ortirma daraja indikatorlari (ayniqsa, *eng*) qo'llanadi: *eng orqada, eng keyinda, eng yaxshi*. Yozma nutqda prosodik imkoniyatlar cheklangan sharoitda bunday indikatorlar semantik ta'kidni lingvistik yo'l bilan kafolatlaydi, ya'ni o'quvchi e'tiborini kerakli uzvga bir qiymatli yo'naltiradi.

Ravishning joylashuvi ham uslubiy-axboriy ta'sirga bevosita ta'sir qiladi. Postverbal pozitsiya (*U chiroyli gapirdi*) harakatning bajarilish tarzini “ichki kadr”da tasvirlasa, gap boshlovchi mavqedagi ravishlar (*Odatda, u erta turadi; Afsuski, uchrashuv bekor qilindi*) butun bayonning modal registrini belgilaydi va mavzu–rema (tema–rema) tuzilmasida kompozitsion signal vazifasini bajaradi. Daraja ravishlari (*juda, nihoyatda, g'oyatda*) bilan birikkan shakllar emotsional fonni oshiradi; chastota ravishlari (*har doim, tez-tez, kamdan-kam*) esa diskursiv barqarorlikni ko'rsatadi va matn kohezioniga xizmat qiladi.

Taqqoslash shuni ko'rsatadiki, sifat va ravishning “belgi bildirish”dagi mushtarakligi ularni yaqinlashtirsa-da, belgi nisbati ularni qat'iy farqlaydi: sifat – predmetga, ravish – harakat/holatga tatbiq etiladi. Ilmiy matnda bu farq, ayniqsa, muhim: sifat terminologik kategoriyalash va aniqlashtirishga yo'nalsa, ravish ko'pincha metodik ko'rsatmalar, sharoit/parametr aniqlovchilari (*mutlaqo elastik emas, odatda, ideal holatda*) orqali bayonning mantiqiy izchilligini kuchaytiradi, biroq emotsional ekvivalent kiritmaydi. Badiiy va publitsistik nutqda esa ravishlar

²⁶ Виноградов В.В. Проблемы русской стилистики. – М.: ВШ, 1981. – С. 21.

baho va ironiyani (“*g‘alati tarzda, kutilmaganda*”), ritm va takroni (“*sekin-sekin, asta-sekin*”) ham tashkil etadi.

Natijada, ravishning alohida turkum sifatidagi maqomini faqat morfologik/leksik mezonlar bilan emas, balki stilistik funksiyalar – tasviriylik, baholovchilik, fokus va kompozitsion signal yaratish – bilan ham belgilash zarur. Sifat esa funksional uslubga qarab emotsional–baholovchidan terminologik–aniqlovchigacha bo‘lgan spektrda ishlaydi. Bizningcha, sifat va ravish tilning axborot tashuvchi va ta’sir ko‘rsatuvchi mexanizmlarini turlicha, ammo o‘zaro to‘ldiruvchi yo‘llar bilan amalga oshiradi; ilmiy uslubda ular aniqlik va mantiqiylikni, badiiy/publitsistik uslublarda esa obrazlilikni ta’minlaydi.

2.2-faslda *ravish va sifatlarning uslubiy xususiyatlari, ularning yuzaga kelishida variantlilik va sinonimik omillar* tahlil qilingan.

Ushbu bo‘limda ravish va sifatlarning uslubiy xususiyatlari, ular tarkibida yuzaga keladigan variantlilik va sinonimik almashuv masalalari tahlil qilinadi. R.Qo‘ng‘urovning ta’kidlashicha, subyektiv baho shakllari, asosan, og‘zaki nutqqa xos bo‘lib, badiiy matnda uchraydigan ko‘plab ko‘rinishlar ham aslida so‘zlashuv nutqidan kelib chiqqan²⁷. Bunday birliklarning uslubiy qiymati faqat emotsional bo‘yoq yoki ma’no nozikligi bilan chegaralanmay, balki ularning funksional uslublardagi o‘rni, notipik kontekstlarda qo‘llanishi va sinonimik munosabatlardagi farqlanishi bilan ham belgilanadi. Shu jihatdan, ravish va sifatlarning stilistik salohiyatini o‘rganishda ularning grammatik xususiyatlarini ham hisobga olish zarur. A.Peshkovskiy morfologik vositalarning uslubiy imkoniyatlari chegaralanganligini ta’kidlagan bo‘lsa-da²⁸, ayrim affikslar (masalan, kichraytirish va erkalash qo‘shimchalari) nutqda kuchli stilistik bo‘yoq berishi aniqlangan. A.N.Gvozdoyevning kuzatishlarida esa rasmiy va ilmiy uslubda bunday vositalarning emotsional qiymati so‘nishi, ular faqat texnik yoki terminologik ma’noda qo‘llanishi ko‘rsatiladi²⁹. Aksincha, so‘zlashuv va badiiy nutqda ular keng qo‘llanilib, nutqqa ekspressivlik, subyektiv baho va emotsional kuch bag‘ishlaydi.

Amaliy kuzatishlar shuni ko‘rsatdiki, o‘zbek tilida ravish va sifatlarning uslubiy xoslanishi sinonimik qatorlarda yaqqol namoyon bo‘ladi. Masalan, *baravariga* ko‘proq badiiy va so‘zlashuv uslubiga xos bo‘lsa, *batamom* va *butunlay* rasmiy-ilmiy matnlarda qo‘llanishi mumkin. *Tamomila* va *butkul* esa ko‘proq badiiy va so‘zlashuv uslubida uchraydi. Bunday farqlar natijasida bir xil ma’noni anglatuvchi ravishlar nutqda turlicha emotsional-ekspressiv ottenkalar hosil qiladi. Masalan, *olmaning ta’mi shirin, shirinroq, shirinday* kabi ifodalar semantik jihatdan yaqin bo‘lsa-da, ularning uslubiy qiymati mutlaqo turlicha.

Zero, ravish va sifatlarning uslubiy salohiyati grammatik va semantik xususiyatlari bilan birga, sinonimik almashuv va variantlilik orqali yuzaga chiqadi. Har bir funksional uslub ularni o‘ziga xos tarzda qo‘llaydi: rasmiy va ilmiy uslubda ular aniqlik va xolislikni ta’minlasa, badiiy va so‘zlashuv uslubida obrazlilik, ekspressivlik va subyektiv bahoni ifodalaydi. To‘g‘ri tanlangan ravish va sifat

²⁷ Қўнғуров Р. Субъектив баҳо формаларининг семантик ва стилистик хусусиятлари. – Тошкент: Фан, 1980. – 33-б.

²⁸ Пешковский А.М. Вопросы методики родного языка, лингвистики и стилистики. – М., 1930. – С.153.

²⁹ Гвоздоев А.Н. Очерки по стилистике русского языка. – М.: Учпедгиз, 1955. – 464 с. – С. 138.

birliklari matnning ta'sirchanligini oshiradi, axborotni aniqlashtiradi va uslubiy boylukni ta'minlaydi. Quyidagi jadvalda ayrim sinonimik birliklarning uslublar bo'yicha taqsimlanishi keltiriladi (Qarang 2-jadval):

2-jadval

Sinonimik birliklarning uslublar bo'yicha taqsimlanishi

Ravish/Sifat	Ilmiy uslub	Rasmiy uslub	Badiiy uslub	So'zlashuv uslubi
Baravariga	–	–	✓	✓
Batamom	✓	✓	✓	–
Butunlay	✓	✓	✓	–
Tamomila	–	–	✓	✓
Butkul	–	–	✓	✓
Shirin	✓	✓	✓	✓
Shirinroq	✓	–	✓	✓
Shirinday	–	–	✓	✓

Zero, ravish va sifatlarning uslubiy salohiyati sinonimik qatordagi o'rniga qarab farqlanadi. Ularning to'g'ri tanlanishi matnning emotsional ta'sirchanligi, aniqligi va stilistik boyligini belgilaydi.

2.3-faslda *ingliz tilida so'zlashuv nutqi, rasmiy va ilmiy uslubdagi matnlarda belgi bildiruvchi so'zlarning uslubiy xususiyatlari* tavsiflangan.

Mazkur bo'limda sifat va ravishlarning ingliz hamda o'zbek tillarida ilmiy, rasmiy va so'zlashuv uslublarida qo'llanishi qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqot metodik asosini funksional-uslub nazariyasi, empirik asosini esa ingliz tilidagi BNC_spoken_2014, English_academic_bawe2, ParlaMint21_en hamda o'zbek tiliga oid 10 000 so'zshakldan iborat mini-korpuslar tashkil etdi. Korpuslar uзнatcorpora.uz vositasida morfologik teglashdan o'tkazilib, faqat belgi bildiruvchi birliklar ajratib olindi.

R.Qo'ng'urov, A.Peshkovskiy, A.N.Gvozdoyev va boshqa olimlar tadqiqotlarida qayd etilganidek, funksional uslublar alohida grammatik tizimga ega emas, biroq ularning qo'llanish chastotasi va uslubiy vazifalari farqlanadi. So'zlashuv va badiiy uslublarda belgi bildiruvchi birliklar ko'proq ekspressiv-subyektiv ahamiyat kasb etadi; ilmiy va rasmiy uslublarda esa neytral-denotativ vazifa ustuvor bo'ladi. O'zbek tilida –gina, –cha qo'shimchalari ilmiy/rasmiy registrda ishlatilmaydi, so'zlashuv/badiiy uslubda esa ekspressivlikni kuchaytiruvchi vosita sifatida faol qo'llanadi.

Korpus natijalari

Ingliz tili og'zaki nutqda ravishlarning qo'llanishi yuqori: *really, very, quite, absolutely, totally* kabi birliklar ekspressivlikni kuchaytiradi. Ilmiy matnlarda esa *also, however, therefore, only, very, most* kabi ravishlar mantiqiy bog'lovchi va darajani bildiruvchi vositalar sifatida qo'llanadi. Rasmiy uslubda esa *hereby, accordingly, duly* kabi ravishlar ustun. Sifatlarning ham registrga qarab farqlanishi kuzatildi: ilmiy matnda *significant, complex, appropriate*, so'zlashuvda *nice, amazing, awful, crazy*, rasmiyda esa *applicable, relevant, regulatory* kabi birliklar faol ishlatiladi.

O'zbek tilida so'zlashuv/badiiy uslubda *yaxshigina, zo'r, qop-qora; juda, rosa* kabi kuchaytiruvchi birliklar ko'p uchraydi. Ilmiy uslubda esa asosan neytral va

terminologik sifatlar qo‘llanadi: *aniq, differensial, iqtisodiy; nisbatan, qisman*. Rasmiy uslubda *tegishli, amaldagi, zarur; batamom, to‘liq* kabi birliklar ishlatiladi.

Qiyosiy ko‘rsatkichlar

Korpus tahlili asosida belgi bildiruvchi birliklarning ulushi quyidagi ko‘rinishga ega:

Til / Uslub	Belgilovchi birliklar ulushi	Ekspressiv komponent
O‘zbek – so‘zlashuv	yuqori	yuqori (≈60%)
O‘zbek – ilmiy	o‘rta	past (≈5–10%)
Ingliz – so‘zlashuv	yuqori	yuqori (≈58%)
Ingliz – ilmiy	o‘rta	juda past (≈3–12%)

Bu natijalar shuni ko‘rsatadiki, ingliz tili og‘zaki nutqida ravishlar miqdoran ko‘p bo‘lsa-da, ularning hammasi ham belgi bildirmaydi; aksincha, diskurs markerlari sifatida qo‘llanadi (*well, so, then, now*). Faqat daraja va tarz bildiruvchi ravishlar hisobga olinganda, sifat va ravishlarning qo‘llanish miqdori muvozanatlashadi.

Tadqiqotning III bobi “O‘zbek va ingliz tili badiiy va publitsistik uslubda belgi bildiruvchi so‘zlarning qo‘llanishi” deb nomlangan.

3.1-faslda *o‘zbek va ingliz tili badiiy va publitsistik uslubining umumiy tavsifi* keltirilgan.

Mazkur faslda matnlarning uslubiy xususiyatlarini statistik usulda tadqiq etish – stilometriya (tekstometriya) doirasidagi yondashuv asoslandi: matnlardan muallif, janr yoki davrga xos uslubiy belgilarni aks ettiruvchi miqdoriy ko‘rsatkichlar ajratilib, ular qonuniyat va farqlarni aniqlash maqsadida statistik tahlil qilindi; yondashuvning nazariy tayanchi sifatida muallif uslubining anglanadigan va anglanilmaydigan qatlamlari mavjudligi haqidagi gipoteza qabul qilindi hamda metodning sud lingvistikasi, mualliflik huquqi, muallifning jinsi va yoshi bilan uslubiy xususiyatlar o‘rtasidagi korrelyasiyani o‘rganishdagi qo‘llanish imkonlari ko‘rsatildi; F.Can, J.M.Patton, J.Hope, A.Kenni, S.Romane, M.Oaks, J.M.Zemb, A.Zenkov, G.Martinenko ishlarida stilometriya masalalarining fundamental asoslari yoritilgani³⁰, B.G.Chuksin va A.I.Trufanovning “Сетевая стилметрия русскоязычных интернет-текстов” maqolasida rus tilidagi internet-matnlar uchun tarmoq metodologiyasi ishlab chiqilib, mavzuni avtomatik aniqlash, modellashtirish, algoritmlar va dasturiy vositalar yaratilgani, turli platformalardan yig‘ilgan korpusda tarmoq yondashuvining tasniflashdagi samarasi namoyish etilgani qayd etildi; tadqiqot dizayni bosqichma-bosqich tashkil etildi: (1) yetarlicha katta matnlar korpusini yig‘ish; (2) dastlabki ishlov – ortiqcha unsurlardan tozalash, kichik harflarga keltirish, lemmalash/stemlash; (3) xususiyatlarni ajratish – so‘zlarning chastotasi, so‘z va gapning o‘rtacha uzunligi, leksik xilma-xillik, grammatik

³⁰ Can F., Patton J. M. Change of writing style with time. // Computers and the Humanities. Vol. 38, No. 1 (2004), pp. 61-82.; Hope J. The Authorship of Shakespeare’s Plays. Cambridge, Cambridge University Press, 1994.; Kenny A. A Stylometric Study of the New Testament, 1986; Kenny, Anthony. The Computation of Style: An Introduction to Statistics for Students of Literature and Humanities. Oxford, Pergamon Press, 1982.; Romaine, Suzanne. Socio-Historical Linguistics. Cambridge, Cambridge University Press, 1982.; Oakes, Michael P. Statistics for Corpus Linguistics. Edinburgh University Press, Edinburgh 1988 ISBN 0-7486-1032-4; Zemb J. M. La stylométrie. // Pierre Guiraud & Pierre Kuentz (red.) La stylistique. Lectures. Klincksieck, Paris 1970, S. 214-222.; Zenkov A. A Method of Text Attribution Based on the Statistics of Numerals // Journal of Quantitative Linguistics, 2018, Vol. 25, No.3, p. 256-270. <http://dx.doi.org/10.1080/09296174.2017.1371915>

konstruksiyalar chastotasi, soʻz turkumlari nisbatlari, tinish belgilarining ishlatilishi, n-grammalar; (4) statistik tahlil – oʻrtachalarni qiyoslash, klasterlash, diskriminant tahlil; (5) mashinali oʻqitish – matnlarni muallif, janr va boshqa uslubiy belgilarga koʻra tasniflash; (6) natijalarni amaliy qoʻllash – anonim/bahsli mualliflikni aniqlash, janr boʻyicha tasnif, uslub evolyutsiyasini kuzatish, lingvistik qonuniyatlarni ochish.

Ingliz tilidagi badiiy matnlar kesimida lugʻaviy xususiyatlar – sinonimiya, antonimiya, hissiy konnotatsiyali birliklar, tasviriy vositalar (metafora, qiyoslash, jonlantirish, metonimiya, sinekdoxa), uslubiy boʻyoqdor leksika (arxaizm, neologizm, dialektizm, sleng, kasbga oid birliklar), hissiy leksika; sintaktik xususiyatlar – sintaktik konstruksiya xilma-xilligi, inversiya, ellipsis, parallel konstruksiya, ritorik soʻroq va undovlar, shuningdek, dialog/monolog, ichki monolog, tavsif (portret, peyzaj), hikoyachi nuqtayi nazar, satira, yumor, ramz va alluziyalarning funksional roli tizimli taʼriflandi.

Oʻzbek tilidagi badiiy matnlar uchun ham lugʻatning rang-barangligi, metafora va tashbeh, mubolagʻa, kichraytish-erkalash shakllari, jonlantirish, chegaralangan leksika (arxaizm, istorizm, neologizm, dialektizm, jargon, kasb-hunarga oid birliklar) hamda sintaktik darajada sodda/qoʻshma/murakkab gaplar kombinatsiyasi, inversiya, ellipsis, parallelizm, ritorik soʻroq va undov, matn tuzilishida dialog/monolog, tasviriy parchalar va hikoyachi nigohining qabulga taʼsiri aniqlashtirildi; ingliz va oʻzbek badiiy uslublari oʻrtasidagi oʻxshashlik va tafovutlar 3.1.1-jadval asosida umumlashtirilib, ikkala tilda obrazlilik va hissiy taʼsirning ustuvorligi, ingliz anʼanalarida metafora, ironiya, alluziyaning nisbatan koʻpligi, oʻzbek matnlarida esa xalq ogʻzaki ijodiga xos ibora va maqollarning ustuvorligi, sheʼriyatda har ikki tilda ritm–qofiya markaziyliigi (oʻzbekda aruz va anʼanaviy vaznlar, inglizda erkin sheʼrning kengligi), voqea va psixologizmga munosabatdagi farqlar, ingliz adabiyotida individualizm/modernizm unsurlarining, oʻzbek adabiyotida esa jamoaviylik va milliy qadriyatlar urgʻusining kuchli ekani koʻrsatildi.

Publitsistik uslub boʻyicha oʻzbek tilidagi tadqiqotlardan kelib chiqib, ommaboplik va tushunarlilik, informativlik va tezkorlik, xolislik, muayyan janrlarda emotsionallik, iqtiboslar orqali ishonchlilik, milliy frazeologizm va maqollarning funksional roli, siyosiy–ijtimoiy terminologiya, jozibador va axborotli sarlavha, teskari piramida, iqtibos va ritorik usullar, turli media formatlariga moslashuvchanlik kabi belgilarning majmuasi qayd etildi; ingliz publitsistikasida aniqlik va qisqalik, xolislik, faktlarning verifikatsiyasi, betaraf leksika, oʻquvchini jalb etuvchi feʼlli konstruksiya, dolzarb ijtimoiy-siyosiy lugʻat, sarlavha va kirish faslining hal qiluvchi roli, teskari piramida, iqtibos va persuasiv ritorikaning (janrga qarab) qoʻllanishi, shuningdek, kirish konstruksiyalari, parallelizm, anafora va gradasiyaning bogʻlovchi vosita sifatida ishlatilishi, kompozitsion va qisqartma birliklarning (mas., one-on-one talks, post-debate) faoliyati amaliy misollar bilan yoritildi. Natijada, stilometrik/statistik yondashuv asosida tuzilgan korpus, standartlashtirilgan oldindan ishlov, xususiyatlar injiniringi va statistik-mashinali tahlil zanjiri ingliz va oʻzbek tillarining badiiy hamda publitsistik uslublarini obyektiv qiyoslash, yashirin

qonuniyatlarni aniqlash va amaliy vazifalarda – mualliflikni aniqlash, janr tasnifi, uslub evolyutsiyasini monitoring qilish – qo‘llash uchun metodik poydevor yaratdi.

3.2-faslda *o‘zbek va ingliz tili badiiy uslubdagi matnlarida belgi bildiruvchi so‘zlarning statistik va qiyosiy tahlili* amalga oshirilgan.

Ingliz va o‘zbek badiiy uslubida sifati va ravishlarning qo‘llanishi nafaqat matnning leksik boyligini ko‘rsatadi, balki uning semantik-psixologik yukini ham belgilaydi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, sifati obraz yaratishda asosiy vosita bo‘lib xizmat qiladi: ular personajning tashqi ko‘rinishi, ichki holati va muhitning badiiy manzarasini ta’riflashda muhim rol o‘ynaydi. Ravishlar esa harakatning uslubi, davomiyligi va darajasini aniqlash orqali matn ritmini boshqaradi, dramatik kuchlanishni oshiradi. Demak, belgi bildiruvchi birliklarning badiiy matndagi vazifasi ko‘pincha “tasvir–ta’sir–ritm” triadasi bilan chambarchas bog‘liq.

Ingliz tilida yaratilgan badiiy matnlar (O. Wilde’ning “The Picture of Dorian Gray” romani korpusi asosida) kuzatuvlar shuni ko‘rsatadiki, yuqori chastotali betaraf sifati (good, own, great, young, old) voqelikning asosiy semantik skeletini tashkil etsa, emotsional bo‘yoqdor sifati (wonderful, horrible, beautiful, dreadful, terrible) matnning hissiy rangini kuchaytiradi va o‘quvchida kuchli psixologik ta’sir uyg‘otadi. Ravishlarning ko‘pligi (not, so, never, very, too, quite, suddenly kabi) esa dramatik kayfiyatni oshirib, hikoyaning ichki ritmini “tezlashtirish” yoki “sekinlashtirish”ga xizmat qiladi. Bu hodisa ingliz adabiyotiga xos bo‘lgan ekspressiv individualizm va obrazlarning psixologik chuqurligi bilan hamohangdir.

O‘zbek badiiy matnlari bo‘yicha o‘tkazilgan korpus tahlili ham mazkur birliklarning alohida ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatadi. Masalan, Nazar Eshonqulning “O‘lik mavsum” asarida sifatlarning 3,85% ni tashkil qilishi detallashtirish va voqelikni “rang-barang” ko‘rsatishga qaratilgan bo‘lsa, Shukur Xolmirzayevning “Tabassum” hikoyasida ravishlarning 2,25% ulushi syujet dinamikasi va qahramon ruhiyatini ifodalashga xizmat qilgan. Abdulla Qahhorning “Bemor” hikoyasida esa sifati (nimjon, karaxt, to‘zigan, begunoh, oq, baland) realizm ruhini kuchaytirib, ijtimoiy tanqidni badiiy obrazga singdiradi. Tarjima matnida ham clear, hard, ill, dizzy, white, gray kabi birliklar inson ruhiyati va jamiyat muammolarini yoritishda funksional vazifa bajaradi.

Shunday qilib, ingliz va o‘zbek adabiyotida belgi bildiruvchi birliklarning chastotasi va sifati o‘ziga xoslik kasb etadi: ingliz matnida ravishlar matnning ritmik tuzilishini belgilashda keng qo‘llanilsa, o‘zbek matnida sifati muhit va personajlarni tasvirlash, milliy ruhni ifodalash vositasi sifatida ustunlik qiladi. Ammo har ikkala adabiyotda ham sifati va ravishlarning uyg‘unligi matnning ta’sirchanligi va obrazlilik darajasini belgilab, muallifning uslubiy mahoratini ko‘rsatadi. Bu kuzatuvlar shuni anglatadiki, badiiy matndagi belgi bildiruvchi birliklar miqdoriy ko‘rsatkichdan tashqari estetik iqtisod va ekspressiv muvozanatning ham ko‘rsatkichidir: ekspozitsiyada ularning ko‘pligi tasviriylikni kuchaytirsa, kulminatsiyada qisqarishi dramatik keskinlikni oshiradi.

Demak, sifati va ravishlarning qo‘llanishidagi milliy xususiyatlar – ingliz adabiyotida individual psixologizm, o‘zbek adabiyotida esa ijtimoiy muhit va milliy

ruhning ustuvorligi – badiiy uslubning ajralmas belgisi sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bois korpus lingvistikasiga asoslangan miqdoriy tahlil nafaqat chastotani aniqlash, balki mualliflik uslubini, janr xususiyatlarini va badiiy ifoda mexanizmlarini ham obyektivlashtirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot jarayonida ingliz va o‘zbek badiiy matnlarida sifat va ravishlarning qo‘llanish xususiyatlari lingvostatistik hamda funksional tahlil asosida o‘rganildi. Korpus materiallari shuni ko‘rsatdiki, sifatlar o‘zbek adabiyotida badiiy obraz yaratish, muhitni yorqin tasvirlash va ijtimoiy ruhni ifodalashda ustunlik qilsa, ingliz adabiyotida ravishlar matnning ritmik tuzilishini belgilash, dramatik kuchlanishni oshirish va voqea rivojiga dinamizm bag‘ishlashda faol qo‘llaniladi. Masalan, Abdulla Qahhorning “Bemor” hikoyasida sifatlar realizm ruhini kuchaytiruvchi vosita sifatida xizmat qilsa, O. Wildening “The Picture of Dorian Gray” romanida emotsional bo‘yoqdor ravishlar (very, really, suddenly va boshqalar) dramatik ta’sirni kuchaytiradi. Shuningdek, yuqori chastotali betaraf sifatlar (good, great, old) har ikkala adabiyotda ham semantik skeletni tashkil etsa, emotsional bo‘yoqdor sifatlar (wonderful, dreadful, begunoh, karaxt) o‘quvchida kuchli his-tuyg‘u uyg‘otuvchi vosita sifatida xizmat qiladi. Demak, sifat va ravishlarning qo‘llanishi matnning janr xususiyatlari, muallif uslubi va estetik maqsadiga bog‘liq holda o‘zgaradi. Belgi bildiruvchi birliklarning badiiy matnlardagi chastotasi miqdoriy ko‘rsatkichdan tashqari, ularning semantik vazifasi va estetik funksiyasi bilan ham belgilanadi; ular matnning obrazlilik, ta’sirchanlik va uslubiy boyligini ta’minlovchi asosiy vositalardan biridir.

3-jadval.

Ingliz va o‘zbek badiiy matnlarida sifat va ravishlarning qo‘llanish chastotasi (foiz ko‘rinishida)

Til / Asar misollari	Jami so‘zlar	Sifatlar (%)	Ravishlar (%)	Xususiyatlari
O‘zbek adabiyoti (A.Qahhor “Bemor”, N.Eshonqul “O‘lik mavsum”, S.Zunnonova “Qarz”)	2 000 – 3 500 atrofida	1.5% – 3.8% (eng yuqori: “O‘lik mavsum” – 3.85%, “Qarz” – 3.52%)	0.8% – 2.25% (eng yuqori: Sh. Xolmirzayev “Tabassum” – 2.25%)	Sifatlar obrazlilik va realizmni kuchaytiradi, ravishlar dinamizm va hissiy fon beradi
Ingliz adabiyoti (O. Wilde “The Picture of Dorian Gray”)	79 635	Sifatlar: 1223 ta ≈ 1.53%	Ravishlar: 337 ta ≈ 0.42%	Sifatlar betaraf (good, old) va emotsional (wonderful, dreadful) guruhlarga bo‘linadi; ravishlar (very, really, suddenly) dramatismni kuchaytiradi

Jadvaldan ko‘rinadiki, o‘zbek badiiy matnlarida sifatlarning nisbati ingliz badiiy matnlariga qaraganda yuqoriroq, ravishlarning foizi esa ayrim hollarda ingliz matnlariga nisbatan yaqinlashadi, ammo ingliz matnida emotsional va intensifikator ravishlarning ustunligi kuzatiladi.

3.3-faslda *o‘zbek va ingliz tili publitsistik uslubdagi matnlarida belgi bildiruvchi so‘zlarning statistik, uslubiy, qiyosiy tahlili* keltirilgan.

Mazkur bo‘lim ingliz va o‘zbek publitsistik uslubida belgi bildiruvchi birliklar – sifat va ravishlarning qo‘llanish xususiyatlarini lingvostatistik hamda funksional-

pragmatik nuqtayi nazardan tahlil qiladi. Publitsistik matnlarning asosiy maqsadi – aniqlik, xolislik va axborotlilik – emotsional hamda baholovchi birliklarning haddan tashqari ko‘pligini chegaralaydi; natijada bunday birliklar maqsadli va iqtisodiy tarzda qo‘llanadi. Sifatlar ko‘proq tasniflash va identifikatsiya (mas., *financial report, international agreement, government statement*), ravishlar esa mantiqiy bog‘lash, daraja va vaqtni aniqlash (*therefore, clearly, currently, very, so*) vazifalarini bajaradi; kuchsiz fe’lni “ko‘tarmasdan”, aksincha kuchli fe’l tanlash tamoyili ustuvor bo‘ladi. Janr (xabar, reportaj, tahliliy maqola), nashr uslubi va kommunikativ maqsad chastotaga ta’sir etuvchi yetakchi omillar sifatida qayd etildi.

Empirik tekshirish uchun korpus yondashuvi qo‘llanildi: (1) ingliz tilida ParlaMint_21_Eng materiallari (53,5 mln) hamda yangiliklar janri bo‘yicha saralangan subkorpuslar; (2) o‘zbek tilida 1991-2020-yillar gazeta matnlaridan iborat korpus va qo‘shimcha ravishda internet yangiliklari asosida kichik mustaqil korpus tuzildi. Matnlar POS-teglashdan o‘tkazildi, chastota va nisbiy chastota (1000/10 000 so‘zga nisbatan) hisoblandi; AntConc/WordSmith/Sketch Engine kabi menejerlar orqali ro‘yxatlar, kollokatsiyalar va kontekstlar chiqarildi. Ingliz publitsistikasida yuqori chastotali sifatlar orasida *right, good, important, local, public, clear, national, international*; ravishlarda *not, so, very, also, now, just, however, therefore, clearly, certainly* kabi birliklar ajralib chiqdi. Ularning funksional talqini shuni ko‘rsatdiki, sifatlar baholash va ta’sir (*important, clear*), guruhlash va identifikatsiya (*national, public*) hamda vaqt-holatni tashkil qilish (*last, current, next*) vazifalarini bajaradi; ravishlar argumentatsiya va dalillash (*however, therefore, indeed*), intensifikatsiya (*very, absolutely, clearly*), vaqt/holat (*now, still, currently*)ni boshqaradi. O‘zbek publitsistikasida esa “muhim, dolzarb, jiddiy, salmoqli” kabi baholovchi sifatlar va “ayniqsa, har qachongidan ham” kabi intensifikatorlar xabar mazmunini ta’sirchan, ammo nisbatan diplomatik tarzda kuchaytiradi; umumiy tendensiya ingliz tiliga nisbatan yumshoqroq baholash va adabiy-rasmiy ohangga yaqinroq diskurs qurilishidir.

Tahlil natijalari: (1) publitsistik matnda sifat/ravishlarning “kamroq chastota – ko‘proq funksional yuk” tamoyili tasdiqlandi; (2) ingliz matnlarida intensifikator ravishlar (*absolutely, deeply, clearly*) orqali tezkor ritm va “chaqiriq” ohangi kuchliroq, o‘zbek matnlarida esa baholash institutsional va mulohazali ohangda beriladi; (3) baholovchi birliklar janr (xabar ↔ tahlil) va kompozitsiya (kirish ↔ kulminatsiya) bo‘limlari kesimida sezilarli darajada differensial taqsimlanadi; (4) korpus-metodik asos chastotani obyektiv ko‘rsatish bilan birga, birliklarning kontekstual funksiyasini (*argumentatsiya, identifikatsiya, intensifikatsiya*) aniqlashga imkon berdi. Ishlab chiqilgan korpus publitsistik uslubda belgi bildiruvchi birliklar me’yorini tavsiflash, tahririy siyosat va stil-yo‘riqlarni (adabiy me’yor, betaraf ohang, intensifikatorlardan oqilona foydalanish) ishlab chiqishda qo‘l keladi; tarjima, media-tilshunoslik, diskurs tahlili va sud-lingvistik ekspertizada baholovchi birliklarning og‘irligini (*bias, manipulyativlik*) o‘lchashga metodik asos yaratadi. Natijalar ingliz va o‘zbek publitsistik matnlarida belgi bildiruvchi birliklarning tipik distribusiyasi hamda pragmatik rolini qiyosiy ko‘rsatib, keyingi bosqichda yirik, muvozanatli korpuslar asosida janrlararo va davriylik bo‘yicha kengaytirilgan tahlil uchun tayanch vazifasini bajaradi.

XULOSA

1. O‘zbek tilida sifat va ravishlar orasidagi mushtaraklik ularning semantik va morfologik yaqinligidan dalolat beradi. Har ikkala so‘z turkumi ham belgi bildiradi: sifat – predmetning, ravish esa harakatning yoki boshqa belgining qandayligini ifodalaydi. Ayrim so‘zlar kontekstdan kelib chiqib sifat yoki ravish vazifasida qo‘llanishi mumkin bo‘lganligi bois ularning morfologik shakli va leksik ma’nosida o‘zaro mushtaraklik yuzaga keladi.

2. O‘zbek tilshunosligida ravishlarning lingvistik tabiatini tadqiq etishga oid tadqiqotlar amalga oshirilgan bo‘lsa-da, ravishlarning nutqda belgi bildiruvchi asosiy element sifatidagi funksional-stilistik xususiyatlari haligacha keng ko‘lamda o‘rganilmagan. Mazkur tadqiqotda ravishlarning nutq jarayonida belgi anglatish xususiyatlari, funksional uslublar doirasida qo‘llanishi, muayyan nutqiy vaziyatda yuzaga chiqadigan uslubiy jilolarini tahlil etishdi. Ravishlarning o‘zgarmasligi haqidagi qarash nisbiy bo‘lib, ularni nutqda tarzda xilma-xil qo‘llash ma’lum uslubiy talab bilan sodir bo‘ladi.

3. Ayrim ravishlarga –i egalik elementining qo‘shilgan holda ishlatilishi adabiy til me’yoriga xos bo‘lmasa-da, bu kabi o‘zgaruvchanlik asosan so‘zlashuv uslubida uchraydi. Ravishga xos bo‘lgan o‘zgarmaslikni uslubiy nuqtayi nazardan asosiy qoida sifatida qabul qilib bo‘lmaydi: bir umumiy ma’no doirasida qaraladigan ravishlarning har biri stilistik jihatdan nutqda muayyan bo‘yog‘i yoki vazifasi bilan farqlanib turadi.

4. Ingliz tilida sifatlarning uslubiy vazifalari sifatida tasvirlash, bo‘yoqdorlik va urg‘u hosil qilish, nutqni emotsional va badiiy jihatdan boyitishni ta’kidlash mumkin. Sifat nafaqat obyektini tasvirlash, balki subyektiv baho va ta’sirni ifodalashda ham katta rol o‘ynaydi. Ingliz tilida ravish harakatning qanday amalga oshgani, qayerda va qachon sodir bo‘layotganini ko‘rsatib, gapning ma’no qatlami va aniq tavsifini beradi; sifat va fe’llarning ma’nosini kengaytiradi. Ingliz tilida ravishlar badiiy va ilmiy uslubdagi matnlarda farqli uslubiy unikalikni yaratishda xizmat qiladi. Ravish vositasida ijtimoiy va shaxsiy munosabatni ifodalash, ironiya va kontrast yaratish mumkin.

5. Ingliz va o‘zbek tili ilmiy uslubida belgini bildiruvchi so‘zlar qo‘llanishida umumiy va farqli jihatlar kuzatiladi. Qo‘llanish chastotasiga ko‘ra ingliz tili ilmiy uslubida belgi bildiruvchi ravishlar keng qo‘llaniladi; ma’lumotning aniq va xolisligiga xizmat qiladi. O‘zbek tili ilmiy uslubida esa bunday ravishlar nisbatan kam uchraydi va ularning qo‘llanishi kontekstga bog‘liq. O‘zbek va ingliz tili ilmiy uslubida belgi bildiruvchi ravishlar fikrni aniq, izchil va mantiqiy ifoda etish vazifasi bilan umumiylik kasb etadi; fe’lga bilan bog‘lanib, ilmiy bayonning dalillarga asoslanganligi va obyektiv yondashuvini ta’minlaydi.

6. Qo‘llanish chastotasi jihatidan ingliz tili rasmiy matnlarida sifat va ravishlar keng miqyosda, aniqlik va rasmiyatni ta’minlash maqsadida faol qo‘llaniladi, o‘zbek tili rasmiy uslubida esa ular ortiqcha obrazlilikdan xoli holda ishlatiladi. Ingliz tilida sifat va ravishlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri fe’l va otlarning belgisini nildirib, rasmiy bayonning tiniqligiga yordam beradi. O‘zbek tilida bunday vazifa o‘zlashma so‘zlar va me’yoriy ifodalar orqali bajariladi. Qiyoslanayotgan tillar rasmiy uslubida sifat

va ravishlar bayonning rasmiyligi, obyektivligi va mantiqiy izchilligini ta'minlashda ahamiyatli. Ularning me'yoriy qo'llanilishi rasmiy hujjat, murojaat yoki normativ matnning mazmuniy aniqligi va uslubiy musaffoligini ta'minlaydi.

7. Ingliz va o'zbek tillari so'zlashuv uslubida belgini bildiruvchi sifat va ravishlar qo'llanish chastotasi jihatidan juda faol; ular hissiy bo'yoq, subyektiv munosabat va taassurotni ifoda etishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Ingliz tili so'zlashuv uslubida ravish orqali ta'kidlash va uslub dinamikasiga erishish keng tarqalgan. O'zbek tilida esa bunday ta'kidlash ko'pincha takror so'z, sheva yoki ekspressiv birikmalar orqali amalga oshiriladi, bu esa so'zlashuv uslubiga milliy o'ziga xoslik bag'ishlaydi.

8. Lingvomadaniy jihatdan ikkala tildagi so'zlashuv uslubidagi sifat va ravishlar nafaqat leksik semantika, balki nutq madaniyati, munosabat shakllari va jamiyatdagi muloqot an'analari bilan uzviy bog'liq. Shu bois ularning qo'llanishida nafaqat grammatik, balki madaniy xususiyatni ham hisobga olish talab etiladi.

9. O'zbek va ingliz tilidagi badiiy hamda publitsistik uslublarning umumiy/farqli jihatlari tahlili o'zaro umumiy belgilariga ega bo'lsa-da, milliy, madaniy va leksik-stilistik xususiyatlarga egaligini ko'rsatadi. Badiiy uslubda obrazlilik, estetik ta'sir va emotivlik ustun bo'lsa, publitsistik uslubda ma'lumotni aniq, ta'sirchan va ishontiruvchan shaklda yetkazish asosiy vazifadir. Badiiy uslubda belgi bildiruvchi so'zlar matnning tasvir qobiliyatini oshirish, voqea, shaxs obrazini yaratishda ahamiyatli. Ayniqsa, tasviriylik va metaforalarda belgi bildiruvchi so'zlar keng qo'llaniladi.

10. Ingliz tili badiiy uslubida belgi bildiruvchi so'zlar yuqori chastotada va keng qamrovda ishlatiladi; bunday so'zlar orqali muallif predmetning xususiyati, ichki holati va emotsional kayfiyatini ifodalaydi. O'zbek tili badiiy uslubida esa belgi bildiruvchi so'zlar milliy mentalitet va madaniy qarashlar asosida shakllanadi. Bu so'zlar odatda xalqona bo'lib, maqol, matal, ibora bilan ifodalanib, tasavvur va hissiy ta'sirni kuchaytiradi; qahramon xarakterini yaratishda muhim yukka ega.

11. Publitsistik uslubda belgi bildiruvchi so'zlar matnda aytilayotgan voqea, shaxs yoki holatga munosabatni aniq ifoda etish, o'quvchini ishontirish, fikrga yo'nalish berish uchun bunday so'zlar zarur. Ular muallifning shaxsiy pozitsiyasini ifoda etadigan vosita sifatida ishlaydi.

12. Ingliz tili publitsistik uslubida belgi bildiruvchi so'zlar emotsional va baholovchi funksiyalarni bajaradi. Yangi xabar, tahliliy maqola yoki sharhlarda bu so'zlar orqali jurnalist yoki tahlilchining shaxsiy munosabati bilinib, umumiy fikr oqimiga ta'sir ko'rsatadi. O'zbek tili publitsistik uslubida esa belgi bildiruvchi so'zlar milliy qadriyat, urf-odat va ijtimoiy qarashlarni yoritishda qo'llaniladi. Ular orqali jamoatchilik fikriga ta'sir ko'rsatish, ma'lum voqealarni ijtimoiy axloq, adolat va vatanparvarlik nuqtayi nazaridan baholash yoki targ'ib qilishga erishiladi.

**THE SCIENTIFIC COUNCIL DSc.03/2025.27.12.Fil.32.02
AWARDING SCIENTIFIC DEGREES AT
ANDIJAN STATE INSTITUTE OF FOREIGN LANGUAGES**

ANDIJAN STATE INSTITUTE OF FOREIGN LANGUAGES

KHASANOVA AQIDA RAKHIMJON KIZI

**THE USE OF ATTRIBUTE-EXPRESSING WORDS IN TEXTS OF
DIFFERENT FUNCTIONAL STYLES
(on the example of the English and Uzbek languages)**

**10.00.06 – Comparative Literature, Contrastive linguistics
and Translation Studies**

ABSTRACT
of dissertation of doctor of philosophy (PhD) on PHILOLOGICAL SCIENCES

The theme of PhD dissertation is registered by the Supreme Attestation Commission of the Republic of Uzbekistan with the number B2025.2.PhD/Fil6319.

The dissertation has been prepared at Andijan State Institute of Foreign Languages.

The abstract of the dissertation is posted in three (Uzbek, Russian, and English (resume)) languages on the website of the Scientific Council (www.adchti.uz) and the information and education portal "ZiyoNet" (www.ziynet.uz).

Scientific supervisor:

Makhsudova Kholiskhon Ummatovna
Doctor of Philosophy (PhD) on Philological Sciences, Associate Professor

Official opponents:

Satimova Dilafruzkhon Numonjonovna
Doctor of Philological Sciences (DSc), Professor

Mirzaakhmedova Yulduzkhon Ummatovna
Doctor of Philosophy (PhD) on Philological Sciences, Associate Professor

Leading organization:

Kokand state University

The defense of dissertation will take place on "_____" _____ 2026 at _____ at a meeting of the Scientific Council awarding scientific degrees DSc.03/2025.27.12.Fil.32.02 at Andijan State Institute of Foreign Languages. (Address: 170100, Andijan city, Babur Avenue 5, Tel: 0(374) 223-42-76, Fax: 0(374) 223-42-76, e-mail: asifl@edu.uz).

The dissertation is available at the Information Resources of Andijan State Institute of Foreign Languages (registration number _____). (Address: 170100, Andijan city, Babur Avenue 5, Tel: 0(374) 223-42-76).

The abstract of the dissertation is distributed on "_____" _____ 2026.
(Protocol at the registered № _____ on "_____" _____ 2026).

D.A.Rustamov

Chairman of the Scientific Council on awarding Scientific degree, Doctor of Philological Sciences (DSc), Professor

A.Dj.Atboev

Scientific secretary of the Scientific Council on awarding scientific degrees, Doctor of Philological Sciences (DSc), Professor

M.A.Abduvaliev

Chairman of the Scientific Seminar of the Scientific Council on awarding scientific degrees, Doctor of Philological Sciences (DSc), Professor

INTRODUCTION (abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) dissertation)

The topicality and necessity of the dissertation theme. In the context of globalization, the steadily expanding cultural and linguistic interactions among different nations significantly increase the importance of comparative research in linguistics. In particular, the study of the functional and stylistic use of attribute-expressing words such as adjectives and adverbs as well as other lexical-stylistic devices in texts of different functional styles contributes to a deeper understanding of the expressive and communicative potential of language. Attribute-expressing words in language not only denote the defining characteristics of objects, phenomena, or actions, but also play a crucial role in shaping such essential textual features as expressiveness, persuasiveness, and stylistic tone. A thorough analysis of these aspects therefore constitutes one of the most pressing issues in stylistics, lexicology, pragmalinguistics, and text linguistics.

In world linguistics, there has always been sustained interest in the issue of how the semantic load, functional appropriateness, and degree of emotional impact of these words are manifested differently across various functional styles of discourse, including scientific, literary, journalistic, official-administrative, and conversational speech. In this regard, a comparative analysis of attribute-expressing words aimed at identifying similarities and differences between the two languages can provide valuable theoretical and practical insights and recommendations for translators, language educators, and professionals working in the field of intercultural communication. In the context of rapid developments in information technologies, there is a growing demand to take into account the stylistic functions of attribute-expressing words in such areas as automatic text analysis, machine translation, and computational linguistics. This further enhances the relevance of the present research not only from a theoretical, but also from a practical perspective.

The elevation of the development of our native language to the level of state policy has become a foundation for the further growth of the spiritual and intellectual potential of our people. The words of the President of the Republic of Uzbekistan, Sh.M.Mirziyoyev: “Each of us must regard respect for the state language as respect for independence, and devotion and reverence for the state language as devotion and reverence for the Motherland, and make such an attitude a guiding principle of our lives”¹ represent a call for the Uzbek nation not only to define its rightful place in society, but also to take a worthy place among the world’s most developed nations. In this regard, there remain many issues that require further investigation and resolution. One of these is the stylistic analysis of attribute-expressing words within the grammatical categories of adjectives and adverbs, which possess distinctive

This research is intended to contribute, to a certain extent, to the implementation of the tasks set forth in the following normative and legal documents: the Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. PF-4794 dated 13 May 2016 “On the Establishment of the Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi”; the Decree No. PF-4947 dated

¹ Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida // O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 20.10.2020 yildagi PF-6084-son. <https://lex.uz/uz/docs/-5058351>
– Murojaat sanasi: 10.12.2025

7 February 2017 “On the Strategy of Actions for the Further Development of the Republic of Uzbekistan”; the Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. PF-5847 dated 8 October 2019 “On Approval of the Concept for the Development of the Higher Education System of the Republic of Uzbekistan until 2030”; and the Decree No. PF-60 dated 28 January 2022 “On the Development Strategy of the New Uzbekistan for 2022–2026”, as well as other regulatory and legal acts related to this field.

The relevance of the Dissertation to the Priority Areas of Science and Technology Development of the Republic of Uzbekistan.

The research was conducted in accordance with Priority Area I of the development of science and technology in the Republic of Uzbekistan: “Development of an information-oriented society and a democratic state, as well as social, legal, economic, cultural, spiritual, and educational advancement, and the development of an innovative economy.”

The degree to which the topic has been studied. Attribute-expressing words, which function as elements forming attributive and relative relations in speech, perform various stylistic functions depending on the communicative situation, in addition to their lexical-grammatical roles, and generate emotional–expressive connotations.

In Uzbek linguistics, a number of studies have been carried out on the stylistic features of morphological means, based on such parts of speech as nouns, verbs, adjectives, pronouns, and postpositions. Among them are the PhD dissertations of R.Qo‘ng‘urov², M.Sodiqova³, Z.Pardayev⁴, A.Pardayev⁵, and O.Yusupova⁶, as well as the monographs⁷ produced as a result of these studies.

The issue of expanding the scope of such research to include other parts of speech remains in the focus of scholarly attention. In Uzbek linguistics, a number of studies have been conducted on the investigation of the attributes and properties of objects and phenomena. Notable contributions in this field include the works of S.Fuzailov, Z.Ma‘rufov, Z.Pardayev, E.Sheraliyev, and T.Asadov⁸, as well as the dissertations of Z.Pardayev, H.Tojimatov, and N.Shirinova⁹. These studies are

² Кўнғуров Р. Ўзбек тилида отлардаги шакл ясовчи морфемаларининг семантик-стилистик хусусиятлари: филол. фан номз. диссер. – Боку, 1982. – 144 б.

³ Содикова М. Ҳозирги ўзбек адабий тилида феъл стилистикаси: филол. фан номз. диссер. – Тошкент, 1991. – 245 б.

⁴ Пардаев З. Ўзбек тилида сифатларнинг семантик-услубий хусусиятлари: филол. фан номз. диссер. – Самарқанд, 2004. – 132 б.

⁵ Пардаев А. Ҳозирги ўзбек тилида кўмакчиларнинг функционал-стилистик хусусиятлари: филол. фан номз. диссер. – Самарқанд, 2005. – 156 б.

⁶ Юсупова О. Ўзбек тилида олмошларнинг функционал-стилистик хусусиятлари: филол. фан номз. диссер. – Тошкент, 2011. – 22 б.

⁷ Кўнғуров Р. Ўзбек тили стилистикасидан очерклар. – Самарқанд, 1975.; Кўнғуров Р. Субъектив баҳо формаларининг семантик ва стилистик хусусиятлари. – Тошкент, 1980.; Содикова М. Феъл стилистикаси. – Тошкент, 1975.; Пардаев З. Ўзбек тилида сифатларнинг семантик-услубий хусусиятлари. – Самарқанд, 2007.; Пардаев А. Ўзбек тилида кўмакчилар стилистикаси. – Самарқанд, 2008.; Юсупова О. Ўзбек тилида олмошларнинг функционал-стилистик хусусиятлари. – Самарқанд, 2017.

⁸ Фузаилов С. Ҳозирги ўзбек тилида равишлар– Самарқанд, 1953.; Маъруфов З. Сўз состави: от ва сифат. – Самарқанд, 1956.; Шералиев Э. Ўзбек халқ шеваларида қўшма от ва қўшма сифатлар. – Тошкент, 2010.; Асадов Т. Сўз туркумлари тизимида равиш. Морография. – Тошкент, 2010.

⁹ Тожиматов Х. Сифат семемасининг реаллашувида контекст: филол. фан номз. диссер. – Тошкент, 2007.; Ширинова Н. Ўзбек тилида предметлик ва белги-хусусият маъноларини фарқлаш воситалари: филол. фан номз. диссер. – Тошкент, 2010.

primarily devoted to the analysis of the semantics and grammatical features of adjectives and adverbs. However, within these monographic works, only certain aspects of the stylistic features characteristic of adverbs are addressed, and none of them provide a comprehensive analysis of the functional-stylistic properties of the elements belonging to this category.

